



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 24-dekabr

737-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 14-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buxoro, Namangan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida irrigatsiya infratuzilmasini rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni Xitoy Xalq Respublikasining Eksport-import banki ishtirokida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 29-noyabrda PQ-409-son qarori ijrosi haqida"gi 602-6-0-Q/24-sonli qarori to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buxoro, Namangan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida irrigatsiya infratuzilmasini rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni Xitoy Xalq Respublikasining Eksport-import banki ishtirokida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 29-noyabrda PQ-409-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024-yil 14-dekabrda 602-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 14-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buxoro, Namangan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida irrigatsiya infratuzilmasini rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni Xitoy Xalq Respublikasining Eksport-import banki ishtirokida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 29-noyabrda PQ-409-son qarori ijrosi haqida"gi 602-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-noyabrda PQ-409 sonli bilan:

Quyidagilar:

dastlabki qiymati 160 mln. AQSH dollari bo'lgan "Buxoro, Namangan va Surxondaryo viloyatlaridagi irrigatsiya infratuzilmasini rekonstruksiya qilish" hamda dastlabki qiymati 60 mln. AQSH dollari bo'lgan "Qashqadaryo viloyatida irrigatsiya infratuzilmasini rekonstruksiya qilish" loyihalarining (keyingi o'rinlarda - Loyihalar) texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilganligi;

Loyihalarni amalga oshirish va moliyalashtirish uchun Xitoy Xalq Respublikasining Eksport-import banki va yirik kompaniyalari bilan muzokaralar olib borilganligi;

Loyihalarni amalga oshirish bo'yicha:

Suv xo‘jaligi vazirligining Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi - buyurtmachi;

Xitoy Xalq Respublikasi Eksport-import bankining imtiyozli krediti - moliyalashtirish manbasi;

v) “Buxoro, Namangan va Surxondaryo viloyatlaridagi irrigatsiya infratuzilmasini rekonstruksiya qilish” loyihasi bo‘yicha:

loyihaning ishchi va boshqa hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha “O‘zGIP” MCHJ - bosh loyihachisi;

istisno tariqasida, Xitoy Xalq Respublikasining “CITIC Construction Co.Ltd” kompaniyasi - bosh pudratchisi;

g) “Qashqadaryo viloyatida irrigatsiya infratuzilmasini rekonstruksiya qilish” loyihasi bo‘yicha: loyihaning ishchi va boshqa hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha “Suvloyiha” MCHJ bosh loyihachisi;

istisno tariqasida, Xitoy Xalq Respublikasining “CITIC Construction Co.Ltd” kompaniyasi hamda “China CAMC Engineering Co., Ltd.” kompaniyasi - bosh pudratchilar etib belgilanganligi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Kudratov), Suv xo‘jaligi vazirligi (Sh. Xamrayev) Xitoy Xalq Respublikasining Eksport-import banki bilan muzokaralar o‘tkazib, Loyihalarni sug‘urta to‘loviz imtiyozli shartlarda moliyalashtirish bo‘yicha shartlarni kelishishi;

Suv xo‘jaligi vazirligi (Sh.Xamrayev) “O‘zGIP” MCHJ (B.Ro‘ziboyev), “Suvloyiha” MCHJ (Q.Bobojonov), Buxoro viloyati (B.Zaripov), Namangan viloyati (Sh.Abdurazakov), Surxondaryo viloyati (U.Qosimov), Qashqadaryo viloyati (M.Azimov) hokimliklari hamda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

bir oy muddatda Loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasi ekspertizadan o‘tkazishi;

ikki oy muddatda Loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini tasdiqlash yuzasidan tegishli qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

Suv xo‘jaligi vazirligi (Sh.Xamrayev), Bosh prokuratura (S.Samadov) Buxoro, Namangan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hokimliklari bilan birgalikda mazkur Loyihalarning loyiha hujjatlari (texnik-iqtisodiy asoslari, tender hujjatlari)ni ishlab chiqishda mahalliy kontentlarni inobatga olish hamda obyektlar qurilishiga ajratilayotgan mablag‘lardan samarali foydalanish va ortiqcha xarajatlarni qisqartirish orqali mablag‘larni iqtisod qilish bo‘yicha zarur choralar ko‘rib borishi;

Belgilanishicha:

Loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslari tasdiqlangandan so‘ng Xitoy Xalq Respublikasining Eksport-import banki bilan qarz bitimlari 2025-yildan boshlab bajariladigan ish hajmlaridan kelib chiqib, qismlarga bo‘lgan holda imzolanadi;

“Qashqadaryo viloyatida irrigatsiya infratuzilmasini rekonstruksiya qilish” loyihasi doirasida:

15 foiz avans to‘lovi uchun 2025-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar mahalliy byudjetlarida melioratsiya obyektlarini ta‘mirlash-tiklash ishlari uchun nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan 120 mlrd. so‘m yo‘naltiriladi;

loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari tasdiqlangandan so‘ng, qarz bitimi shartlaridan kelib chiqib, 2025-yil uchun Davlat byudjeti parametrlariga o‘zgartirishlar kiritiladi;

Quyidagilar:

suv xo‘jaligi vaziri Sh.Xamrayev, Buxoro viloyati hokimi B.Zaripov, Namangan viloyati hokimi Sh.Abdurazakov, Surxondaryo viloyati hokimi U.Qosimov, Qashqadaryo viloyati hokimi M.Azimov Loyihalar bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun lozim bo‘lgan sharoitlarni ta‘minlashga, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasining Eksport-import banki tartib-taomillari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq zarur hisobot va hujjatlarni o‘z vaqtida tayyorlash va taqdim etishni tashkil etishga;

Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Loyihalar doirasidagi mablag‘larning maqsadli ajratilishi va sarflanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilishiga;

qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri Sh.Xidoyatov hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi Loyihalar doirasida amalga oshiriladigan qurilish- montaj ishlarining sifatli bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatilishiga shaxsan mas‘ul va javobgar ekanligi belgilab qo‘yilganligi m‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Xakimov, Viloyat hokimining o‘rinbosari – Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig‘i O.Inamov, “Norin-Sirdaryo” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (J.Rizzayev), tumanlar hokimliklari hamda manfaatdor boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

bir oy muddatda Loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasi ekspertizadan o‘tkazilishida;

ikki oy muddatda Loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini tasdiqlash yuzasidan tegishli qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritilishida vakolati doirasida amaliy yordam ko‘rsatishi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Tuman “Zardaryo” ITB (K.Toshboyev), Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), tegishli tashkilot va idoralar bilan birgalikda Loyihalarni amalga oshirish jarayonida bosh pudratchilarga yetarli ish sharoitlarini yaratish uchun tasdiqlangan suv ochish va yopish grafiklariga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov

